



UDK:582.794:581.95(575.1)

Marxamat MATVAFAYEVA,
O'zRFA Botanika instituti O'zbekiston Milliy gerbariysi katta ilmiy xodimi, b.f.n
E.mail: botany@akademy.uz
Oybek MAMARAXIMOV,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti
E.mail: oybekmamarahimov74@gmail.com

Nukus davlat pedagogika instituti professori, b.f.d A.Ajiev taqrizi asosida

ANALYSIS OF PRANGOS LINDL. SPECIES PRESERVED IN THE UNIQUE COLLECTION OF THE NATIONAL HERBARIUM OF UZBEKISTAN (TASH)

Аннотация

This article presents the results of an inventory of herbarium specimens of the genus *Prangos* Lindl. preserved in the National Herbarium of Uzbekistan (TASH). A catalog of the *Prangos* genus was compiled. A critical analysis of the *Prangos* herbarium specimens stored in the TASH collection was conducted. The study revealed that the genus *Prangos* in the flora of Uzbekistan comprises not 8 species, as previously reported, but 11 species. Accordingly, an updated species composition of the genus was established.

Keywords: National Herbarium of Uzbekistan (TASH), *Prangos*, flora, inventory, herbarium specimen, species.

АНАЛИЗ ВИДОВ РОДА PRANGOS LINDL. ХРАНЯЩИХСЯ УНИКАЛЬНОМ НАУЧНОМ ОБЪЕКТЕ НАЦИОНАЛЬНОМ ГЕРБАРИИ УЗБЕКИСТАНА (TASH)

Аннотация

В статье приводятся результаты инвентаризации гербарных образцов рода *Prangos* Lindl., хранящихся в Национальном гербарии Узбекистана (TASH). Составлен каталог рода *Prangos*. Проведен критический анализ образцов гербария рода *Prangos*, хранящихся в фонде (TASH). Исследования показали что род *Prangos* встречающихся во флоре Узбекистана состоит не из 8 видов, а из 10. В результате инвентаризации было установлено, что основной фонд Национального гербария Узбекистана содержит всех видов рода *Prangos*, найденных во флоре Узбекистана.

Ключевые слова: Национальный гербарий Узбекистана (TASH), *Prangos*, инвентаризация, гербарный экземпляр, вид.

O'ZBEKISTON MILLIY GERBARIYSI (TASH) NOYOB OBYEKTIDA SAQLANAYOTGAN PRANGOS LINDL. TURKUMI TURLARINING TAHLILI

Аннотация

Maqolada O'zbekiston Milliy gerbariysida (TASH) saqlanayotgan *Prangos* Lindl. turkumi gerbariy namunalarning inventarizatsiyasi bo'yicha natijalar keltirildi. *Prangos* turkumining katalogi tuzildi. TASH fondida saqlanayotgan *Prangos* turkumi gerbariy namunalarning tanqidiy tahlili amalga oshirildi. Tadqiqot natijasida *Prangos* turkumi O'zbekiston florasida 8 turdan emas, balki 11 turdan iborat ekanligi aniqlandi, turkumning yangilangan tur tarkibi shakllantirildi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston Milliy gerbariysi (TASH), *Prangos*, flora, inventarizatsiya, gerbariy namunasi, tur.

Kirish. O'zbekiston Milliy gerbariysi (TASH) 1831-1835 yillardan boshlab yig'ilgan va hozirgi kunda 1,5 mln. dan ortiq gerbariy namunalari bilan O'rta Osiyo o'simlik turlari bo'yicha dunyodagi eng yirik gerbariy kolleksiyasi hisoblanadi. Shunga ko'ra, bu kolleksiya O'zbekiston va unga yondosh bo'lgan hududlar o'simliklari xilma-xilligini tadqiq etish va raqamli ma'lumot bazasini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. TASH fondida saqlanayotgan gerbariy namunalarning elektron katalogini shakllantirish, ular orasida turlarni tarqalishini aks ettiruvchi geoaxborot tizimidagi (GAT) xaritalarini tuzish, namunalarning O'zbekiston botanik-geografik okruglari bo'yicha taqsimlanishi, asosiy kollektorlari, kamyob va Qizil kitobga kiritilgan turlar bo'yicha tahlil etish O'zbekistonda tabiiy flora turlarini keng qo'lamli tadqiq etish xususan O'zbekiston florasining yangi nashrlarini tayyorlash va ma'lumotlar bazasini yaratish yo'nalishlaridagi fundamental tadqiqotlarning muhim ilmiy asosi sifatida xizmat qilmoqda. Ushbu maqolada TASH fondida saqlanayotgan *Prangos* Lindl. turkumi (Apiaceae Lindl.oilasi) turlariga oid gerbariy namunalarning inventarizatsiyasi to'g'risida ma'lumotlar keltirildi.

Tadqiqot ob'ekti va metodlari. Tadqiqotning ob'ekti "O'zbekiston Milliy gerbariysi noyob ob'ekti (TASH) fondida saqlanayotgan *Prangos* turkumi turlarining gerbariy namunalari hisoblanadi. Turkum turlarining ilmiy nomlari Opredelitel rasteniy Sredney Azii: Kriticheskiy konspekt Flory [1], Opredelitel rasteniy sredney Azii [2], Flora Uzbekistana [3, 4] asari va "Plants of the World online" (www.plantsoftheworldonline.org) [5], Plantarium (<https://www.plantarium.ru>) [6], xalqaro elektron ma'lumotlar, bazalari asosida keltirildi. Taksonlarning mualliflari R.K. Brummit, C.E. Powell [7] bo'yicha keltirildi. Mavjud gerbariy namunalarning botanik-geografik tahlili Tojibayev va boshq. tomonidan ishlab chiqilgan sxema bo'yicha tahlil qilindi [8]. Gerbariy yorliqlaridagi ma'lumotlar qaysi tilda yozilgan bo'lsa shundayligicha (tarjima qilinmasdan) keltirildi.

Olingan natilalar va ularning tahlili. Ma'lumki, so'nggi (2023-2024) yillar davomida O'zbekiston Milliy gerbariysi noyob ob'ekti (TASH) fondida saqlanayotgan Apiaceae Lindl. oilasiga mansub bo'lgan *Eryngium* L., *Ferula* L. turkumiga mansub turlarning gerbariy namunalari ilk bor inventarizatsiyadan o'tkazildi. Inventarizatsiya natijalariga ko'ra *Ferula* turkumi 97 turning jami 3984 nusxa, *Eryngium* turkumi 11 turning jami 373 nusxa gerbariy namunalari mavjudligi aniqlandi [9,10]. *Prangos* Lindl.


turkumi ham (Apiaceae) oilasiga mansub. 1825 yilda ingliz botanik olimi Jon Lindli tomonidan aniqlangan. *Prangos* turkumining yer yuzida 50 ga yaqin turlari mavjud bo'lib, O'rta Yer dengizi, G'arbiy O'rta Osiyo va Markaziy Osiyo hamda Himoloy tog'larigacha tarqalgan. Rossiya va sobiq ittifoqda 18 turi, O'rta Osiyoda 17 turi, O'zbekiston esa 8 turi [3] tarqalgan. O'zbekiston Milliy gerbariysi noyob ob'ekti asosiy fondida saqlanayotgan *Prangos* turkumi turlarini gerbariy namunalari tahlili shuni ko'rsatdiki O'zbekiston florasida 8 turi uchrashi to'g'risidagi ma'lumotlar "Flora Uzbekistana"(1959) asarida keltirilgan [4]. TASH fondida saqlanayotgan gerbariy namunalari tahlil qilish va zamonaviy dala tadqiqotlari orqali hozirgi kunda turkumning 10 turi uchrashi aniqlandi. Shu bilan birga O'zbekiston Milliy gerbariysi fondida O'rta Osiyo va boshqa hududlardan terilgan, O'zbekiston florasida uchramaydigan turlarning gerbariy namunalari ham mavjud bo'lib, ular quyidagi jadvalda keltirildi (1-jadval). Inventarizatsiya natijasida O'zbekiston Milliy gerbariysi noyob ob'ekti asosiy fondida *Prangos* turkumi 16 turining barchasini gerbariy namunalari mavjudligi aniqlandi. Ta'kidlash joizki, ayrim turlar sinonimga tushgan bu turlar ham o'zgartirishsiz keltirildi.

1- jadval


O'zbekiston Milliy gerbariysi (TASH) fondida saqlanayotgan *Prangos* Lindl. turkumi turlarining gerbariy namunalari

No№	Turning nomi	Gerbariy namunasi soni
O'zbekiston florasida uchraydigan turlar		
1	<i>Prangos ammophila</i> (Bunge) Pimenov & V.N. Tikhom.	19
2	<i>Prangos bucharica</i> B. Fedtsch	74
3	<i>Prangos cachroides</i> (Schrenk) Pimenov & V.N.Tikhom.	14
4	<i>Prangos cylindocarpa</i> Korovin	12
5	<i>Prangos didyma</i> (Regel) Pimenov & V.N. Tikhom.	65
6	<i>Prangos fedtschenkoi</i> (Regel & Schmalh.) Korovin	58
7	<i>Prangos lipskyi</i> Korovin	51
8	<i>Prangos ornata</i> Kuzmina	20
9	<i>Prangos pabularia</i> Lindl.	304
10	<i>Prangos tschimganica</i> B. Fedtsch.	35
11	<i>Prangos uloptera</i> DC.	105
Jami namuna soni:		757
O'zga hudud florasida uchraydigan turlar		
12	<i>Prangos ferulacea</i> (L.) Lindl.	1
13	<i>Prangos herderi</i> (Regel) Herrnst. & Heyn	6
14	<i>Prangos latiloba</i> Korovin	7
15	<i>Prangos ledebourii</i> Herrnst. & Heyn	11
16	<i>Prangos odontalgica</i> (Pall.) Herrnst. & Heyn	6
Jami namuna soni:		31
17	<i>Prangos</i> sp.	532
Jami namuna soni:		788

TASH fondida mavjud *Prangos* turlarining 1900 yildan 2019 yilgacha bo'lgan muddat davomida gerbariy namunalari soni bo'yicha ma'lumotlar (1-rasmda) keltirilgan. Tahlillarning ko'rsatishicha, turkumga mansub bo'lgan gerbariy namunalari katta qismi 1929- 1939 yillar oralig'ida yig'ilgan. Bunda 1918 yilda O'rta Osiyo davlat universitetining tashkil etilishi va ko'plab mashhur olimlarning O'zbekistonda botanik tadqiqotlarni olib borishga jalb etilishi muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Eng kam gerbariy namunalari 1970 -2009 yillarga to'g'ri kelib, buning sababini ushbu yillar davomida floristik tadqiqotlar jadalligi susaygani, dala tadqiqotlari davomida terilgan gerbariy namunalari aksariyat qismi TASH asosiy fondiga to'liq joylashtirilmaganligi bilan izohlash mumkin. So'nggi yillar esa O'zbekiston Milliy gerbariysida tadqiqotlar ko'lami kengayib borayotganligi bilan ajralib turadi. 2010 yildan boshlab kam o'rganilgan turli mahalliy floralarning tarkibi aniqlandi, to'r tizimli xaritalash, alohida taksonomik birliklarning tahliliga bag'ishlangan izlanishlar TASH fondini yangi namunalar bilan boyishiga olib kelmoqda. Ushbu turkumning eng dastlabki gerbariy namunasi *Prangos cachroides* (Schrenk) Pimenov & V.N. Tikhom. turiga mansub bo'lib, *Dimo* va boshq. tomonidan (08.04.1911) Samarqandskoy oblasti. Slabo zasolennaya step mejdu Pistali-tau ozero Tus-kan dan terilgan. TASH fondida saqlanayotgan *Prangos* turkumi turlarining barchasiga tegishli gerbariy namunalari mavjud bo'lsada, 5 turning sanoqli (1 tadan – 11 tagacha) namunalari mavjud. Ular o'zga hudud florasida uchraydigan turlarning gerbariy namunalari bo'lib, ular qatoriga quyidagi turlar kiradi: *Prangos ferulacea* (1), *P. herderi* (6), *P. odontalgica* (6), *P. latiloba* (7), *P. ledebourii* (11), jami 5 turning 31 ta gerbariy namunalari mavjudligi aniqlandi.

**Rasmi 1. TASH fondidagi *Prangos* Lindl. turlarining gerbariy namunalari yillar bo'yicha taqsimlanishi**


Bir asrdan ko'proq vaqt oralig'ida O'zbekiston hududida uchraydigan *Prangos* turkumi turlariga oid gerbariy namunalari TASH fondida 757 ta namunani tashkil etsa, shundan eng ko'p terilgan gerbariy namunalari 8 turga to'g'ri keladi (2-rasm).



2-rasm *Prangos* Lindl. turkumining gerbariy namunalari ko'p terilgan turlari bo'yicha tahlili

Ushbu turlardan gerbariy namunalari ko'p terilganligiga asosiy sabablar sifatida ularning geografik areallari va ekologik diapozonlarining kengligini keltirish mumkin.

O'zbekiston Milliy gerbariysi fondida saqlanayotgan *Prangos* turkum turlariga oid gerbariy namunalari botanik-geografik okruglar bo'yicha taqsimlanishi tahlil etilganda, eng ko'p terilgan gerbariy namunalari G'arbiy Tyan-Shan, G'arbiy Hisor, Qizilqum, Nurota okruglariga, eng kam terilgan gerbariy namunalari Panj, Farg'ona okruglariga to'g'ri kelishi aniqlandi (3-rasm). Demak, turkum turlari uchun mos ekologik makonlar tog'li hududlarda joylashgan. Cho'l mintaqasi ham turkumning ayrim turlari uchun mos ekologik makonlar sifatida qayd etish mumkin. Masalan bunga misol qilib: *Prangos ammophila* (Bunge) Pimenov & V.N. Tikhom. turkum gerbariy namunalari keltirish mumkin: Пустыня Кызылкуме. Бургристо –грядовые пески. В 65 км к западу от Тамди, 16.05.1966, TASH 00265833, Р.Д. Мельникова, Н.И.Акжигитова,533; Кызыл -кум. Тамдынский район. В окрестности колхоз Даукдук. Мелько-бургристые закрепленные пески, 19.05.1957 TASH00265837, Т. Адильов ,287; Кызылкумская пустынная станция НПЦ “Ботаника” АНРУз, 14.05.2007.TASH00211337; TASH00211338, К.Тожибаев; Кызылкум, окрестность села Калаата, 18.05.2021, TASH00211336, Д. Турдиев, Э. Ортиков, И. Журамуродов,18052021327.



3-rasm. O'zbekiston Milliy gerbariy fondida saqlanayotgan *Prangos* turkumi turlariga oid gerbariy namunalari botanik-geografik okruglar bo'yicha taqsimlanish ko'rsatkichi

TASH fondida saqlanayotgan *Prangos* Lindl. turkumiga oid gerbariy namunalari terishda M. G. Popov, A. I. Vvedenskiy, Ye. P. Korovin, M. V. Kultiasov, S. N. Kudryashov, V. Bochantsev, A. I. Granitov, A. P. Drovov, Ye. Ye. Korotkova, S. Lepeshkin, S. X. Chevrenidi, T. Adilov, N. I. Akjigitova, R. D. Melnikova, R. Vernik, M. Nabiyeu, A. Gaziyeu, K. Tojibayev, N. Yu. Beshko kabi bir qator olimlar asosiy kollektorlar sifatida keltiriladi.

Xulosa. TASH fondida saqlanayotgan *Prangos* turkumi turlariga mansub gerbariy namunalari tahlillari shuni ko'rsatdiki, so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan dala tadqiqotlarida bu turkumga mansub turlarning gerbariy namunalari juda kam miqdorda yig'ilgan. Shundan kelib chiqib, *Prangos* turkumi doirasida olib borilayotgan zamonaviy botanik tadqiqotlarni yangi bosqichga olib chiqish TASH fondini *Prangos* turkumiga mansub gerbariy namunalari bilan boyitish va bu turkum turlariga oid turlarning yangi populyatsiyalarini aniqlash uchun maqsadli dala tadqiqotlarini tashkil qilish, shu bilan birga turlar xilma-xilligini eng yuqori bo'lgan Qurama, G'arbiy- Tyan-Shan, Qizilqum botanik-geografik rayonlarida muntazam kuzatuv monitoring ishlarini olib borish lozim

ADABIYOTLAR

1. Oprelitel rasteniy Sredney Azii: Kriticheskiy konspekt flory: 11 T. -Tashkent: Fan, 2015.- p.497
2. Oprelitel Rasteniy Sredney Azii.- Tashkent: Fan, 1983. 7 T.- p. 201-207
3. Korovin Ye. P. Sem UMBELLIFERAE -Zontichnie. Flora Uzbekistana, 1959, T.4. - p. 322-328
4. Flora Uzbekistana.- Izdatelstvo "Fan" Tashkent. 2023. T.5. p. 93-100
5. Plant of the World online (Powo). <http://www.powo.science.kew.org> (Murojat etilgan sana: 01.01.24.2026)
6. <https://www.plantarium.ru> (Murojat etilgan sana: 01.01.28.2026)
7. Brummitt R.K., Powel C.E. (eds). Authors of plants names. Royal Botanic Gardens-Kew, 1992.- p.732
8. Tojibayev K.Sh., Beshko N.Yu., Popov V.A. Botaniko- geograficheskoye rayonirovaniye Uzbekistana //Botanicheskiy jurnal, 2016.-№10 (101).-p. 1105- 1132
9. Matvafayeva M., Mamaraximov O. O'zbekiston Milliy gerbariysi (TASH) noyob ob'ekti saqlanayotgan *Eryginum* L. turkumi inventarizatsiyasi natijalari // O'z MU xabarlari. 2024.3/1.b. 66-69
10. Matvafayeva M., Maxkamov T.X., Mahammadova S.B. "O'zbekiston milliy gerbariysi" (TASH) noyob ob'ektida saqlanayotgan *Ferula* L. turkumi // XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI -2025. № 6/1. b.144 -149